

O'QITUVCHILARNING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINING MOHIYATI VA AHAMIYATI.

*Jizzax viloyati pedagogik mahorat
markazi Pedagogika va psixologiya
kafedrası dotsenti, p.f.f.d(PhD)
Ko'bayev Akmal Sirliyevich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limning mamlakat taraqqiyotidagi o'rni, ta'lim sifatini oshirish va ahamiyati, malakasini oshirish tizimining mohiyati va ahamiyati, o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini innovasion boshqarish ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyati qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'limda **innovatsion texnologiyalar**, o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi, kasbiy rivojlanish, interaktiv usullar, innovatsion metodlar, raqamli ta'lim texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье кратко излагается роль образования в развитии страны, повышение и значение качества образования, сущность и значение системы повышения квалификации, важность разработки и внедрения в практику инновационного менеджмента системы повышения квалификации учителей.

Ключевые слова: инновационные технологии в образовании, система повышения квалификации учителей, профессиональное развитие, интерактивные методы, инновационные методы, цифровые образовательные технологии. s узбекский перевод

Annotation: This article summarizes the role of education in the development of the country, the importance of improving and improving the quality of education, the essence and importance of the system of professional development, the important importance of developing and practicing innovative management of the system of training of teachers.

Keywords: innovative technologies in education, teacher training system, professional development, interactive methods, innovative methods, digital education technologies.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda maktab ta'limi sifatini yaxshilashda pedagog va rahbar xodimlarining pedagogik etika va muloqot madaniyati, ta'limdagi islohotlar va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari, ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or, innovatsion texnologiyalarini samarali joriy etishga ilmiy

yondashuvi, sinfni boshqarish, otaonalar va o'quvchilar bilan muloqot va hamkorlik qilish, inklyuziv ta'limni tashkil etish, o'quvchilar faoliyatini baholash usullari, Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi – bu pedagoglarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, zamonaviy ta'lim talablari asosida pedagogik mahoratlarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy jarayondir.

Malaka oshirish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi pedagogik va metodik ko'nikmalarni muntazam ravishda takomillashtirish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish interaktiv usullar, raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'lim platformalaridan samarali foydalanish;
- innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish konstruktiv yondashuvlar, differensial va individual ta'lim metodlarini qo'llash;
- kasbiy kompetensiyalarni oshirish o'qituvchilarni yangilangan ta'lim standartlari va dasturlariga moslashtirish.

Ta'lim sifatini oshirishda malakali pedagoglarning roli katta bo'lib, ularning bilim va tajribasi o'quvchilarning ta'lim natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun, malaka oshirish tizimi quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

- o'qituvchilar doimiy ravishda yangilanayotgan pedagogik texnologiyalarni o'zlashtiradi;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarda ishtirok etish orqali ta'lim jarayoni takomillashtiriladi;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos keluvchi ta'lim yondashuvlarini joriy etish imkoniyati yaratiladi;
- yangi bilim va tajribalarga ega bo'lish orqali pedagogik faoliyatda samaradorlik oshadi;
- o'qituvchilarning tashabbuskorligi, innovatsion fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi;
- kasbiy faollik va pedagogik jarayonga bo'lgan qiziqish kuchayadi;
- masofaviy va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati kengayadi;
- innovatsion metodlar, jumladan, STEAM ta'limi, gamifikatsiya va loyihaviy ta'limni joriy etish imkoniyati yaratiladi;
- ta'lim sohasidagi davlat siyosati va xalqaro tajribalarga mos keluvchi malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish;

- ta'lim standartlarining yangilanib borishiga moslashish va ularni amaliyotga joriy etish;
- o'qituvchilarni jamiyat va iqtisodiy o'zgarishlarga mos holda kasbiy rivojlantirish.

O'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish ta'lim sifati va pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim talablari o'qituvchilardan yangi texnologiyalar, innovatsion metodlar va raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan o'qituvchilarni shakllantirish orqali jamiyatning intellektual va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin.

O'qituvchilar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish ta'lim sifati, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va ta'lim jarayonining innovatsion o'zgarishlariga moslashishini ta'minlaydi. Yuqorida keltirilgan yo'nalishlarni amalga oshirish orqali o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ularni zamonaviy ta'lim standartlariga moslashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni, - T.: 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni, - T.: 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son Farmoni, - T.: 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79 son Farmoni, - T.: 2023.
5. Sharipov Sh., Zokirov I., Tohirov O'. va b. Umumiy o'rta ta'limning kasbga yo'naltirilgan mazmunini klaster texnologiyalari. Metodik tavsiyanoma. –T.: «ABU MATBUOT-KONSALT», 2012.
6. Sharipov Sh.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasb ta'limi pedagogikasi. - Toshkent., 2005.
7. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. TDPU. –Toshkent. 2017.